

## Amir Temur davlati bilan Ispaniya qirolligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar

Ispaniyaning Leida universiteti (University of Lleida) professori Flocel Sabate Curull ishtirokida 2020 yil 29 fevral kuni institut axborot resurs markazi videokonferentsiyalar zalida "Diplomatic relationship between Spain and Tamerlan" mavzusidagi seminar tashkil etildi. Professor Flosel Sabate XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida xalqaro vaziyat va buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur va Kastiliya qirolligi o'rtasidagi iliq diplomatik munosabatlar o'rnatilgani haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdi.

O'sha davrda G'arb va Sharq o'rtasida diniy qarama-qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan Amir Temur Yevropaga do'stlik eshiklarini ochgan, o'zaro qizg'in diplomatik aloqalar olib borgan. U o'sha davrda mashhur bo'lgan barcha Yevropa qirollariga elchilar yuborgan va G'arb hukmdorlarining elchilarini qabul qilgan. Yevropa jamiyati, xususan Ispaniya xalqi bu do'stlikni hayajon bilan kuzatgani, hatto Frantsiyada Amir Temurga atab oltin haykal qo'ygani, unda "Evropa haloskoriga" degan yozuv bo'lgani haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Amir Temur 1402 yilda Yildirim Boyazidni yengib, Yevropani Usmoniyalar zulmidan xalos etgan, g'arb qirollariga teng manffatli hamkorliklar o'rnatish va bu borada bitimlar imzolash takliflarini kiritgan. O'sha paytda yevropadan kelgan har bir savdogarning hayoti, mol-mulki himoyaga olingan, ulardan hatto boj ham olinmagan.



Ana shu aloqalar ichida Amir Temurning Kastiliya qirolligi bilan olib borgan do'stlik rishtalari juda mustahkam bo'lgan. Ular xatlarida o'zaro bir-birlariga yaxshi tilaklar bildirgan va bir-birlarini olqishlaganlar. Amir Temur o'zining mohir diplomati hisoblangan Muhammad Keshiyini Ispaniyaga elchi qilib jo'natgan va mana shu elchilikka javoban Kastiliya qirolligi Rui Gonzales de Klavixoni Samarqandga Amir Temur saltanati poytaxtiga elchi sifatida yuborgan. Bu elchilik 1403-1406 yillarda amalga oshirilgan.

Rui Gonzales de Klavixo o'zining ko'rgan-bilganlari va eshitganlari haqida "Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" nomli asarini yozib qoldirgan. Bu asar Amir Temur saltanati, xususan Amir Temur va Ispaniya munosabatlari tarixi haqida batafsil ma'lumotlar beruvchi muhim manbaga aylangan. Bugun yangi davrda Amir Temur orzu qilgan iliq munosabatlar ilmiy sohada ham qayta tiklanmoqda va rivojlanmoqda. Seminarda "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish", "Gidromelioratsiya", "Yer resurslarini boshqarish" va "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti talabalari faol ishtirok etishdi. Mavzu talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**